

BESH TASHABBUS BESH IMKONIYAT.

Nazirova Sokinaxon Muxtorjonovna.

Xolmatova Dildoraxon Axmadovna.

Annotatsiya: Ushbu tezisda yurtimizda olib borilayotgan muhim isloxatlar va ularning aholi farovonligida tutgan o‘rni, “Besh muhim tashabbus” va uning yoshlar o‘rtasidagi ijrosi tog‘risida malumotlar berilgan

Kalit sozlar: Besh muhim tashabus, isloxat, xotin-qizlar bandligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, internet olami, san’at va madaniyat asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019- yilning mart oyida “Besh muhim tashabbus” g‘oyasi ilgari suruldi. Bu besh muhim tashabbus - yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minalash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois Prezident tomonidan ilgari surulgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish boyicha “5 ta muhim tashabbus”ni ilgari surgan edilar. Bu besh tashabbus quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchunchi tashabbus – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalasi nazarda tutadi.



Maskur 5 ta muhim tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizni barcha hududlarida keng joriy qilish masalalarida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat vazirligi, xalq ta’limi vazirligiga, hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda, madaniyat

markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarni qiziqishidan kelib chiqib, qoshimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi muhim qilib qoyildi va yurtimiz rahbari tomonidan ko‘plab yangiliklar va isloxtlar amalga oshirildi. Tashabbuskor iste’dodli yoshlar va mahalliy homiyлarni jalb etgan xolda, madaniyat markazlarida badiiy havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr studiyalari va “**Yoshlar klublari**” tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi. Taniqli san’atkor va iste’dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarni ko‘makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi.

Unga muvofiq taniqli artistlar tuman va shaharlarda ijodiy maslaxatchi sifatida biriktirilib, o‘sha joylarda madaniyat va san’atni rivojlantirishga ma’sul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarni moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san’at sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham katta e’tibor qaratildi. Ushbu besh muhim tashabbusning birinchi yo‘nalishi ya’ni san’at va madaniyat yo‘nalishi bo‘yicha yurtimiz maktablarida jumladan Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 46-umumiyl o‘rta ta’lim maktabida ham tadbir (shou asosida) “**Talant shou**” nomi asosida tashkillanib o‘tkazildi.

Shouvni maktabning **4-“v”** sinf hamda **2-“a”** sinf o‘quvchilari ustozlar ko‘magida yosh tomoshabinlarga ustozlarga nomoyish qilishdi.

Dastur nomoyishi ko‘tarinki ruhda bo‘lib, o‘quvchilar hamda havaskor o‘quvchilarda katta taa’surot qoldirdi.